ZAMONAVIY BADIIY TA’LIM TIZIMIDA AKADEMIK TASVIRIY SAN’ATNING METODOLOGIK ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Xasanova Nargiza Sagdullayevna
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
Muzeyshunoslik kafedrasi dotsenti v.b.,
san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
DOI: 10.67620/artdsgn.690019

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy badiiy ta’lim jarayonida akademik tasviriy san’atning nazariy, amaliy va metodologik ahamiyati tahlil qilinadi. Akademik ta’lim tizimining tarixiy shakllanishi, rus akademik maktabi va O’zbekiston rassomlik maktabining tajribasi hamda vizual idrok psixologiyasiga oid nazariyalar asosida akademik rasm va rangtasvirning rassom tafakkurini shakllantirish, borliqni vizual idrok etish, shakl, nisbat, perspektiva, yorug’-soya munosabatlari va ranglar uyg’unligini anglashdagi o’rni ochib beriladi. Raqamli texnologiyalar, zamonaviy vizual kommunikatsiya va yangi badiiy ifoda vositalarining rivojlanishi sharoitida akademik tasviriy san’atning imkoniyatlari va metodik vazifalari ko’rib chiqiladi. Akademik ta’lim an’analarini zamonaviy ijodiy yondashuvlar bilan uyg’unlashtirish, talabalarning individual badiiy tafakkurini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Maqola yakunida o’quv topshiriqlarining bosqichli tizimi, mezonli baholash modeli va o’qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik takliflar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *akademik tasviriy san’at, badiiy ta’lim, akademik rasm, rangtasvir, badiiy tafakkur, vizual idrok, ijodiy kompetensiya, kompozitsiya, raqamli texnologiyalar, zamonaviy san’at, rassom tayyorlash, mezonli baholash.*

Аннотация. *В статье анализируется теоретическое, практическое и методологическое значение академического изобразительного искусства в условиях современного художественного образования. На основе исторического формирования академической системы обучения, опыта русской академической школы и узбекской школы живописи, а также теорий психологии зрительного восприятия раскрывается роль академического рисунка и живописи в формировании художественного мышления, развитии визуального восприятия, понимании пропорций, перспективы, светотеневых отношений и цветовой гармонии. Рассматриваются возможности академического искусства в условиях развития цифровых технологий, визуальных коммуникаций и новых средств художественного выражения. Особое внимание уделяется интеграции академических традиций с современными творческими подходами, развитию индивидуального художественного мышления студентов и совершенствованию их профессиональных компетенций. Предложены поэтапная система учебных заданий, модель критериального оценивания и методические рекомендации по повышению эффективности преподавания.*

Ключевые слова: *академическое изобразительное искусство, художественное образование, академический рисунок, живопись, художественное мышление, визуальное восприятие, творческие компетенции, композиция, цифровые технологии, современное искусство, критериальное оценивание.*

Abstract. *This article examines the theoretical, practical and methodological significance of academic fine arts in contemporary art education. Drawing on the historical formation of the academic system, the experience of the Russian academic school and the Uzbek school of painting, as well as theories of visual perception, it explores the role of academic drawing and painting in developing artistic thinking, visual perception, and the understanding of proportion, perspective, light and shadow, and colour harmony. The study considers the relevance of academic art in the context of digital technologies, visual communication and emerging forms of artistic expression. Particular attention is given to integrating academic traditions with contemporary creative approaches, fostering students' individual artistic thinking and enhancing their professional competencies. A staged system of learning tasks, a criteria-based assessment model and methodological recommendations for improving the teaching of academic fine arts are proposed.*

Keywords: *academic fine arts, art education, academic drawing, painting, artistic thinking, visual perception, creative competencies, composition, digital technologies, contemporary art, criteria-based assessment.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda san'atning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayotdagi o'rni tobora kengayib, uning ifoda vositalari va namoyon bo'lish shakllari jadal o'zgarib bormoqda. Raqamli tasvir, multimedia, fotografiya, kompyuter grafikasi, virtual muhit va sun'iy intellekt asosidagi vizual vositalarning rivojlanishi tasviriy san'atning an'anaviy shakllariga bo'lgan munosabatni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda akademik tasviriy san'atning dolzarbligi, uning zamonaviy rassom tayyorlash tizimidagi vazifalari va badiiy ta'lim mazmunini shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash muhim masalalardan biridir.

Masalaning dolzarbligi davlat siyosati darajasida ham e'tirof etilgan. Milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasida madaniyat va san'at sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan[1]. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida esa ta'lim mazmunini amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish vazifalari qo'yilgan[2]. Bu talablar badiiy oliy ta'limda fundamental akademik tayyorgarlik va zamonaviy ijodiy amaliyot o'rtasidagi muvozanatni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Akademik tasviriy san'at ko'p asrlik badiiy tajriba, kuzatish, tahlil, tasviriy qonuniyatlarni o'rganish va amaliy mashqlar orqali shakllangan ta'lim tizimidir. Uning asosini borliqni haqqoniy kuzatish, shakl va hajmni anglash, anatomik va konstruktiv tuzilishni tahlil qilish, perspektiva qonuniyatlarini o'zlashtirish, yorug'-soya munosabatlarini aniqlash hamda rangtasvir vositalari yordamida yaxlit badiiy obraz yaratish tashkil etadi.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

Akademik tasviriy san’atning ahamiyati faqat tasviriy ko’nikmalarni egallash bilan cheklanmaydi. U talabaning ko’rish madaniyatini, kuzatuvchanligini, fazoviy tasavvurini, estetik baholash qobiliyatini va mustaqil ijodiy qaror qabul qilish salohiyatini rivojlantiradi. H.Rayli (Howard Riley) tomonidan tasviriy san’atni o’qitish masalalariga bag’ishlangan tadqiqotda ham rasm chizish ko’rish va vizual fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida talqin qilinadi[3]. Shu nuqtayi nazardan, akademik tasviriy san’atni zamonaviy ijodiy jarayonlarga qarama-qarshi qo’yish metodologik jihatdan to’g’ri emas. Aksincha, uning nazariy va amaliy asoslarini yangi badiiy tajribalar bilan uyg’unlashtirish orqali ta’lim mazmunini boyitish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Akademik badiiy ta’limning tarixiy shakllanishi N.Pevznerning “Academies of Art, Past and Present” asarida keng yoritilgan. Muallif 1563-yilda Florensiyada Dj.Vazari tashabbusi bilan tashkil etilgan Rangtasvir akademiyasi (Accademia delle Arti del Disegno), 1648-yilda Parijda ta’sis etilgan Qirollik rangtasvir va haykaltaroshlik akademiyasi hamda 1757-yilda Sankt-Peterburgda tashkil topgan Badiiy akademiya faoliyatini tahlil qilib, akademik ta’limning naturadan, gipsdan va antik namunalardan izchil ishlashga asoslangan tizimi qanday shakllanganini ko’rsatadi[4].

Rus akademik maktabida P.P.Chistyakovning pedagogik tizimi alohida o’rin tutadi. U chizmatasvirni predmetni mexanik nusxalash emas, balki shaklning konstruktiv tuzilishini, plastikasini va fazodagi munosabatlarini ongli tahlil qilish jarayoni sifatida talqin etgan[5]. Bu g’oyalar D.N.Kardovskiyning tasviriy san’atga oid qo’llanmasida[6], keyinroq N.N.Rostovtsevning akademik chizmatasvir va tasviriy san’at metodikasiga oid asarlarida tizimli metodik shaklga keltirilgan[7]. N.N.Rostovtsev o’qitishni “umumiydan xususiyga va xususiydan yana umumiyga” tamoyili asosida bosqichma-bosqich tashkil etishni asoslagan[8]. Rangtasvirni o’qitishning nazariy va metodik masalalari G.V.Beda[9], chizmatasvir va rangtasvirning o’zaro bog’liqligi Yu.M.Kirtser[10], akademik tasviriy san’atning konstruktiv asoslari esa N.G.Li[11] tomonidan batafsil ishlab chiqilgan. O’zbek tilidagi o’quv adabiyotlari orasida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti akademik, professor-o‘qituvchilarining 1994 yildan bugungi kunga qadar yaratilgan va chop etilgan o’quv hamda uslubiy qo‘llanma, darsliklari nafaqat talabalar balki, yosh pedagoglar uchun bebaho dasturdir. S.Abdullayevning “Rangtasvir asarida kompozitsiya muammolari” (1994), “O‘quv topshiriqlari uslubiyati” (1997), M.Nuriddinovning “Portret (qo‘llari bilan) II kurs III-semestridagi topshiriq” (1996), S.Raxmetovning “Rangtasvirda yalangg’och figura (Dastgohli rangtasvir ustaxonasi bo‘yicha III-IV kurs talabalari uchun metodik qo‘llanma)” (1996), G’.Ortiqovning “Rangtasvir asarlarida nusxa ko’chirishdagi izchillik”[12]

[3] Riley H. A contemporary pedagogy of drawing // Journal of Visual Art Practice. – 2021. – Vol. 20, No. 4. – P. 323–349. – DOI: https://doi.org/10.1080/14702029.2021.1980278.
[4] Pevsner N. Academies of Art, Past and Present. – Cambridge: Cambridge University Press, 1940.
[5] Чистяков П.П. Письма, записные книжки, воспоминания. – М.: Искусство, 1953.
[6] Кардовский Д.Н. Пособие по рисованию. – М.: Изогиз, 1938.
[7] Ростовцев Н.Н. Академический рисунок. – М.: Просвещение, 1984.
[8] Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. – М.: Просвещение, 1980.
[9] Беда Г.В. Живопись. – М.: Просвещение, 1986.
[10] Кирцер Ю.М. Рисунок и живопись. – М.: Высшая школа, 1992.
[11] Ли Н.Г. Рисунок. Основы учебного академического рисунка. – М.: Эксмо, 2005.
[12] Абдуллаев С.А. Рангтасвир асарида композиция муаммолари. – Тошкент: «ТДСИ ўқув босмахонаси», 1994; Абдуллаев С.А. Ўқув топшириқлари. – Тошкент: «ТДСИ ўқув босмахонаси», 1994; Нуриддинов М.Н. Портрет қўллари билан. – Тошкент: «ТДСИ ўқув босмахонаси», 1996; Раҳметов С. Рангтасвирда яланғоч фигура. – Тошкент: «ТДСИ ўқув босмахонаси», 1996; Ортиқов Ғ. Рангтасвир асарларидан нусха кўчириш. – Тошкент: «ТДСИ ўқув босмахонаси», 1997.

(1997) o‘quv adabiyotlari milliy oliy ta’lim tizimida akademik tasviriy san’atga o’qitishning metodik asosini tashkil etadi[13].

Vizual idrok psixologiyasi nuqtai nazaridan R.Arnxeymning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. U ko’rishni passiv qabul qilish emas, balki shaklning tuzilmaviy xususiyatlarini faol “ushlash” va umumlashtirish jarayoni deb hisoblaydi[14]. E.Gombrix tasvir yaratishda rassom avval sxemaga tayanishi, so’ngra uni kuzatish orqali bosqichma-bosqich tuzatib borishini ko’rsatgan[15]; bu g’oya akademik mashg’ulotlardagi “umumiy shakldan detalga” boriladigan ish tartibini nazariy jihatdan asoslaydi. Dj.Raskin esa tasviriy san’atga o’qitishning asosiy sharti “ko’zning aniqligi”ni, ya’ni predmetni oldindan bilgan tushunchalar orqali emas, balki aynan ko’rinib turganidek idrok etishni tiklashda deb bilgan[16].

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda rasm chizish vizual savodxonlik va kognitiv rivojlanish vositasi sifatida o’rganilmoqda. B.Edvards tasviriy san’atni o’rganish aslida ko’rishni o’rganish ekanini ta’kidlab, chegara, bo’shliq, nisbat, yorug’-soya va yaxlitlikni idrok etishdan iborat beshta asosiy idrok ko’nikmasini ajratadi[17]. X.Gardnerning ko’p intellekt nazariyasida fazoviy intellekt mustaqil qobiliyat sifatida ajratilgan bo’lib, u akademik tasviriy san’at mashg’ulotlarida bevosita rivojlantiriladi[18]. I.Ittenning rang kontrastlari nazariyasi esa rangtasvir ta’limining nazariy asoslaridan biri bo’lib qolmoqda[19]. Tasviriy san’at ko’nikmalarini o’qitish va baholash muammolari K.Ouen tomonidan tahlil qilingan bo’lib, muallif baholash mezonlarining noaniqligi o’quv natijalariga salbiy ta’sir ko’rsatishini qayd etadi[20].

Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, akademik tasviriy san’atning tarixiy-nazariy asoslari yetarlicha o’rganilgan bo’lsa-da, uni raqamli texnologiyalar va zamonaviy san’at amaliyoti sharoitida o’qitish, shuningdek, akademik ishlarni mezonli baholash masalalari hali ham qo’shimcha tadqiqotni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini san’atshunoslik, badiiy pedagogika va vizual idrok nazariyalariga tayangan kompleks yondashuv tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy metod (akademik ta’lim tizimlarining shakllanishi va rivojlanishini solishtirish), nazariy tahlil va sintez (san’atshunoslik, pedagogik va psixologik adabiyotlarni o’rganish), tizimli yondashuv (akademik ta’limni kompetensiyalar tizimi sifatida ko’rib chiqish), pedagogik kuzatish hamda ilg’or o’qitish tajribasini umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. *Akademik tasviriy san’atning mohiyati va tamoyillari.* Akademik tasviriy san’at – borliq shakllarini ilmiy kuzatish, tahlil qilish va tasviriy vositalar orqali ifodalashga yo’naltirilgan badiiy ta’lim tizimidir. Uning asosiy mazmunini shakl, hajm, nisbat, perspektiva, konstruksiya, yorug’-soya, rang va kompozitsiya qonuniyatlarini amaliy o’zlashtirish tashkil etadi.

[13] Boymetov B. Qalamtasvir. – Toshkent: Musiqa, 2006.
[14] Arnheim R. Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye. – Berkeley: University of California Press, 1954.
[15] Gombrich E.H. Art and Illusion: A Study in the Psychology of Pictorial Representation. – London: Phaidon, 1960.
[16] Ruskin J. The Elements of Drawing. – London: Smith, Elder and Co., 1857.
[17] Edwards B. Drawing on the Right Side of the Brain: The Definitive, 4th Edition. – New York: Tarcher/Penguin, 2012.
[18] Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
[19] Itten J. The Art of Color: The Subjective Experience and Objective Rationale of Color. – New York: Reinhold, 1961.
[20] Owen C. Through a Glass Darkly: The Teaching and Assessment of Drawing Skills in the UK Post-16 Art & Design Curriculum// International Journal of Art & Design Education. – 2020. – Vol. 39, No. 2. – P. 333–345. – DOI: https://doi.org/10.1111/jade.12265.

Akademik tasviriy san’atning shakllanishi tarixan Yevropa san’at maktablari, ustaxona an’analari va akademik ta’lim muassasalari faoliyati bilan bog’liq bo’lsa-da[21], uning asosiy tamoyillari turli xalqlarning tasviriy san’at tajribasi bilan boyib borgan. Borliqni kuzatish, tasviriy shakllarni tahlil qilish, material xususiyatlarini hisobga olish va kompozitsion yaxlitlikka erishish ko’plab badiiy an’analarda muhim o’rin tutadi. O’zbekistonda akademik rassomlik maktabining shakllanishida P.P.Benkov, A.N.Volkov, O.K.Tatevosyan, O’.Tansiqboyev kabi rassomlarning pedagogik va ijodiy faoliyati muhim rol o’ynagan bo’lib, ular akademik tayyorgarlikni mahalliy tabiat, yorug’lik va milliy turmush obrazlari bilan uyg’unlashtirgan. Bugungi kunda bu an’analar respublikaning badiiy kollej va oliy ta’lim muassasalarida davom ettirilmoqda.

Akademik ta’limning asosiy xususiyati nazariya va amaliyotning uzviyligidir. Talaba perspektiva qoidalarini faqat nazariy jihatdan bilish bilan cheklanmasdan, ularni real predmetlar, geometrik jismlar, natyurmort, inson qomati va murakkab kompozitsiyalarni tasvirlash jarayonida qo’llashi lozim. Rangshunoslik qonuniyatlari ham ranglar haqidagi nazariy bilimlar bilangina emas, balki real yorug’lik sharoitida rang munosabatlarini kuzatish va tahlil qilish orqali o’zlashtiriladi[22].

Akademik tasviriy san’atning muhim vazifalaridan biri predmetning tashqi ko’rinishini mexanik ravishda ko’chirish emas, balki uning ichki konstruktiv tuzilishini anglashdir. P.P.Chistyakov ta’kidlaganidek, rasm chizish – bu avvalo fikrlash, shaklni anglash jarayonidir[23]. Masalan, geometrik jismlarni tasvirlashda talaba hajmning fazoda joylashishi, perspektivadagi qisqarishlar, o’zaro nisbatlar va yorug’lik ta’sirida yuzaga keladigan ton farqlarini aniqlashga o’rganadi. Bu ko’nikmalar keyinchalik murakkab obyektlar, inson qomati va mustaqil ijodiy kompozitsiyalar ustida ishlash uchun metodologik asos bo’lib xizmat qiladi. Shu jihatdan akademik tasviriy san’atni tayyor tasviriy qoidalar yig’indisi sifatida emas, balki kuzatish, tahlil, tasviriy muammoni anglash va uni ijodiy hal qilishga yo’naltirilgan bilish tizimi sifatida talqin etish lozim.

Akademik tasviriy san’atning vizual idrok va badiiy tafakkurni rivojlantirishdagi o’rni. Tasviriy san’at ta’limining samaradorligi, avvalo, talabaning ko’rish va ko’rganini tahlil qilish qobiliyatiga bog’liq. Oddiy qarash jarayonida inson predmetni umumiy belgilariga ko’ra taniydi. Akademik tasviriy san’at esa predmetning shakli, nisbatlari, fazoviy joylashuvi, konstruktiv tuzilishi va yorug’lik ta’siridagi o’zgarishlarini ongli ravishda kuzatishni talab etadi. R.Arnxeym ta’kidlaganidek, ko’rish faol bilish jarayoni bo’lib, unda inson shaklning asosiy tuzilmaviy xususiyatlarini ajratib oladi[24].

H.Rayli va M.Darlingtonning tadqiqotlarida tasviriy san’at vizual savodxonlikni shakllantiruvchi, kuzatish va tasviriy fikrlashni o’zaro bog’lovchi muhim faoliyat sifatida yoritilgan[25]. Bu yondashuv akademik tasviriy san’atning badiiy ta’limdagi vazifasini kengroq tushunish imkonini beradi.

Akademik mashg’ulotlar davomida talaba bir vaqtning o’zida bir necha aqliy amallarni bajaradi: predmetni kuzatadi, uning asosiy shaklini ajratadi, nisbatlarni solishtiradi, fazoviy munosabatlarni aniqlaydi, tasviriy yechimni rejalashtiradi va natijani nazorat qiladi. Mazkur

[21] Pevsner N. Academies of Art, Past and Present. – Cambridge: Cambridge University Press, 1940.
[22] Беда Г.В. Живопись. – М.: Просвещение, 1986.
[23] Чистяков П.П. Письма, записные книжки, воспоминания. – М.: Искусство, 1953.
[24] Arnheim R. Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye. – Berkeley: University of California Press, 1954.
[25] Riley H., Darlington M. Drawing matters // Art, Design & Communication in Higher Education. – 2022. – Vol. 21, No. 1. – P. 115–130. – DOI: https://doi.org/10.1386/adch_00050_1.

jarayon E.Gombrix ta’riflagan “sxema va tuzatish” mexanizmiga mos keladi: rassom dastlab umumiy sxemani belgilaydi, so’ngra uni naturaga solishtirib, izchil aniqlashtirib boradi[26].

Akademik tasviriy san’atda ko’rish madaniyati (badiiy ko’zqarash) quyidagi ko’nikmalar orqali shakllanadi: *kuzatuvchanlik* – predmetning muhim va ikkilamchi belgilarini farqlash; *nisbatlarni aniqlash* – shakl qismlarining o’zaro o’lcham va joylashuv munosabatlarini baholash; *fazoviy tafakkur* – predmetning uch o’lchamli tuzilishini ikki o’lchamli tekislikda ifodalash; *analitik fikrlash* – murakkab shaklni sodda konstruktiv qismlarga ajratib o’rganish; *vizual umumlashtirish* – kuzatilgan obyektning muhim xususiyatlarini saqlagan holda yaxlit obraz yaratish; *o’zini nazorat qilish* – bajarilgan tasvirni tahlil qilish va kamchiliklarni mustaqil aniqlash. Bu ko’nikmalar B.Edvards ajratgan asosiy idrok ko’nikmalariga[27] va X.Gardner tavsiflagan fazoviy intellekt tarkibiga[28] mos keladi hamda nafaqat akademik tasviriy san’atda, balki haykaltaroshlik, dizayn, teatr-dekoratsiya san’ati, animatsiya va boshqa vizual yo’nalishlarda ham muhimdir.

M.Abdulla va hammualliflarning oliy ta’limdagi tasviriy san’at va dizayn amaliyotlariga bag’ishlangan tadqiqotida kuzatish asosida tasviriy san’at vizual idrok, kognitiv ko’nikmalar va ijodiy fikrlash bilan bog’liq holda tahlil qilinadi[29]. Bu xulosa akademik mashg’ulotlarni faqat texnik mahoratni oshirish bilan cheklamasdan, vizual fikrlashni rivojlantiruvchi ta’lim faoliyati sifatida tashkil etish zarurligini ko’rsatadi.

Zamonaviy vizual madaniyat va raqamli texnologiyalar sharoitida akademik tayyorgarlik. Zamonaviy san’atning muhim xususiyatlaridan biri badiiy ifoda vositalarining kengayishidir. Bugungi rassom an’anaviy rangtasvir va grafikadan tashqari fotografiya, installyatsiya, videografika, raqamli illyustratsiya, uch o’lchamli modellashtirish va boshqa vositalardan foydalanishi mumkin. Biroq vositalarning o’zgarishi tasviriy tafakkurning asosiy masalalarini bekor qilmaydi. Shakl va fazo munosabati, kompozitsion muvozanat, vizual urg’u, nisbat, ritm va rang uyg’unligi an’anaviy hamda raqamli tasviriy faoliyatda o’z ahamiyatini saqlab qoladi.

Masalan, raqamli illyustratsiya yaratuvchi mutaxassis kompozitsiyani shakllantirish, yorug’lik manbasini aniqlash, hajmni ifodalash va ranglar o’rtasidagi munosabatlarni boshqarish ko’nikmalariga ehtiyoj sezadi. Uch o’lchamli modellashtirishda esa shaklning konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi va proporsiyalarini tushunish muhim hisoblanadi. Sun’iy intellekt asosidagi tasvir generatorlari keng tarqalgan bugungi sharoitda esa tayyor vizual mahsulotning badiiy sifatini baholay olish, uning kompozitsion va plastik kamchiliklarini ko’ra bilish qobiliyati aynan fundamental akademik tayyorgarlikka tayanadi. Demak, akademik tayyorgarlik yangi texnologiyalardan samarali va tanqidiy foydalanish uchun ham zarur nazariy-amaliy asos yaratadi.

Shu bilan birga, akademik tasviriy san’atni faqat naturaga maksimal darajada o’xshash tasvir yaratish bilan tenglashtirish mumkin emas. Zamonaviy san’atda shaklni deformatsiyalash, soddalashtirish, ramziy ifodalash yoki abstraktlashtirish ham mustaqil badiiy maqsadga ega bo’lishi mumkin. Bunday yechimlar tasodifiylikka emas, balki rassomning ongli tanlovi, estetik pozitsiyasi va badiiy niyatiga asoslanganida mazmun kasb etadi. Shuning uchun akademik

[26] Gombrich E.H. Art and Illusion: A Study in the Psychology of Pictorial Representation. – London: Phaidon, 1960.
[27] Edwards B. Drawing on the Right Side of the Brain: The Definitive, 4th Edition. – New York: Tarcher/Penguin, 2012.
[28] Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
[29] Abdullah M., Khairani M.Z., Vincent Amos F., Abdul Aziz M.N., Ramlie M.K. Learning to Draw is Learning to See: A Comprehensive Review of Art and Design Practices in Higher Education // Idealogy Journal. – 2024. – Vol. 9, No. 1. – P. 93–105. – DOI: https://doi.org/10.24191/idealogy.v9i1.563.

ta’limning zamonaviy vazifasi talabani yagona tasviriy uslubga moslashtirish emas, balki turli badiiy vazifalarni ongli ravishda hal qila oladigan darajaga olib chiqishdir.

Akademik ta’lim va individual ijodiy yondashuvning uyg’unligi. Badiiy ta’limning muhim muammolaridan biri akademik talablar bilan talabaning individual ijodiy xususiyatlari o’rtasidagi munosabatni to’g’ri tashkil etishdir. Agar ta’lim faqat qoidalarni takrorlashga asoslangan bo’lsa, talabaning mustaqil izlanishi va individual badiiy tili yetarlicha rivojlanmasligi mumkin. Aksincha, fundamental tasviriy tayyorgarliksiz faqat erkin ijodga tayanish shakl, kompozitsiya va texnik yechimlardagi muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli akademik ta’limda metodik izchillik va ijodiy erkinlik o’zaro uyg’unlashtirilishi zarur. Akademik o’quv topshiriqlarining N.N.Rostovtsev tamoyillari asosida tuzilgan bosqichli tizimi 1-jadvalda keltirilgan[30].

1-jadval

Akademik tasviriy san’at bo’yicha o’quv topshiriqlarining bosqichli tizimi

Bosqich	O’quv topshiriqlari	Shakllanadigan ko’nikmalar
I. Boshlang’ich	Geometrik jismlar, sodda natyurmort, gips geometrik shakllar kompozitsiyasi	Konstruktiv qurish, chiziqli perspektiva, ton munosabatlari
II. Asosiy	Murakkab natyurmort, gips ornament va rozetka, gips bosh (kalla)	Hajm va plastikani ifodalash, rang va ton munosabatlari, material fakturasi
III. Murakkablashgan	Jonli natura: portret, inson qomati, harakatdagi figura	Plastik anatomiya, harakat va muvozanat, xarakterni ifodalash
IV. Ijodiy-integrativ	Ko’p figurali kompozitsiya, interyer va peyzajda figura, mustaqil ijodiy loyiha	Kompozitsion fikrlash, individual badiiy yechim, ijodiy mustaqillik

Bunday yondashuvda pedagogning vazifasi faqat xatolarni ko’rsatishdan iborat bo’lmaydi. U talabaga xatoning sababini anglash, muammoni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ko’rib chiqish va o’z ijodiy qarorini asoslashda ko’maklashadi. E.Eysner san’at ta’limini murakkab fikrlash shakllarini rivojlantirish bilan bog’lab, san’atni faqat texnik mahorat yoki tayyor mahsulot bilan baholashning cheklanganligini ko’rsatadi[31]. Badiiy faoliyat noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish, vizual muammolarni turlicha hal etish va individual talqinni shakllantirish imkonini beradi. Demak, akademik tasviriy san’atni o’qitishda talabadan nafaqat to’g’ri tasvir yaratish, balki o’zining badiiy yechimini tushuntirish, tahlil qilish va rivojlantirish ham talab etilishi lozim.

Akademik chizmatasvir va rangtasvirni o’qitishning zamonaviy metodik yo’nalishlari. Zamonaviy badiiy ta’lim akademik tajribani saqlagan holda o’qitish metodlarini takomillashtirishni talab etadi. Bunda talabaning individual imkoniyatlari, ta’lim yo’nalishi va kasbiy maqsadlarini hisobga olish muhimdir. Tahlil asosida quyidagi metodik yo’nalishlar ajratildi.

Birinchi yo’nalish – bosqichma-bosqich o’qitish. O’quv topshiriqlari oddiy shakllardan murakkab kompozitsiyalarga qarab izchil tashkil etilishi kerak (1-jadval). Har bir bosqich keyingi vazifani bajarish uchun zarur ko’nikmalarni shakllantiradi.

[30] Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. – М.: Просвещение, 1980.
[31] Eisner E.W. The Arts and the Creation of Mind. – New Haven: Yale University Press, 2002.

Ikkinchi yo'nalish – kuzatish va tahlilga asoslangan ta'lim. Talaba tasvirni boshlashdan oldin predmetning konstruktiv tuzilishi, asosiy o'qlari, nisbatlari va yorug'lik sharoitini tahlil qilishi lozim[32]. Bu usul tasviriy faoliyatni mexanik bajarishdan ongli badiiy jarayonga aylantiradi.

Uchinchi yo'nalish – an'anaviy va raqamli vositalarni uyg'unlashtirish. Qog'ozda bajarilgan eskizlar, akademik chizmalar va rangtasvir mashqlari raqamli tasvir, fotografik kuzatish hamda elektron portfoliolar bilan to'ldirilishi mumkin. Bunda raqamli vositalar an'anaviy mashqlar o'rnini to'liq egallamasdan, ularni tahlil qilish va rivojlantirish imkonini beradi.

To'rtinchi yo'nalish – individual ijodiy vazifalar. Bir xil akademik qonuniyatlarni o'zlashtirgan talabalar ulardan turli ijodiy maqsadlarda foydalanishlari mumkin: bir talaba realistik rangtasvirga, boshqasi dekorativ yechimga, yana biri grafik umumlashtirishga intilishi mumkin. Pedagogik baholashda fundamental ko'nikmalar bilan bir qatorda ijodiy qarorning asoslanganligi ham e'tiborga olinishi kerak.

Beshinchi yo'nalish – refleksiya va o'zini baholash. Talabalar o'z ishlarini dastlabki eskizlar bilan solishtirish, xatolarni aniqlash va yakuniy natijani tahlil qilishga o'rgatilishi lozim. Bunday faoliyat mustaqil ishlash madaniyatini rivojlantiradi.

Oltinchi yo'nalish – fanlararo integratsiya. Akademik chizmatasvir va rangtasvirni kompozitsiya, san'at tarixi, rangshunoslik[33], plastik anatomiya, dizayn va zamonaviy vizual kommunikatsiya bilan bog'lash maqsadga muvofiq. Bu yondashuv talabaning nazariy bilimlarini amaliy ijodiy faoliyatda qo'llashiga yordam beradi.

Akademik tasviriy san'atning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati. Oliy badiiy ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabalarda kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Akademik tasviriy san'at bu jarayonda fundamental tayyorgarlik vazifasini bajaradi. Rassom, grafik dizayner, libos dizayneri, teatr rassomi, illyustrator yoki tasviriy san'at pedagogi faoliyatida vizual tahlil va shaklni ifodalash ko'nikmalari muhim o'rin tutadi. Kasbiy vazifalarning mazmuni turlicha bo'lsa-da, ularning aksariyatida kompozitsion fikrlash, proporsiyalarni tushunish, ranglar munosabatini aniqlash va tasviriy yechimni asoslash zarurati mavjud. Akademik ta'lim quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- tasviriy obyektni kuzatish va tahlil qilish;
- shakl va fazoviy munosabatlarni ifodalash;
- kompozitsion yechim ishlab chiqish;
- material va texnikani maqsadga muvofiq tanlash;
- rang va yorug'lik munosabatlarini boshqarish;
- mustaqil ijodiy qaror qabul qilish;
- bajarilgan ishni tahlil qilish va takomillashtirish.

Bunda akademik tayyorgarlik kasbiy kompetensiyalarning yagona manbai sifatida qaralmasligi lozim. Zamonaviy mutaxassis uchun san'at tarixi, madaniy kontekstni anglash, kommunikativ ko'nikmalar, texnologik savodxonlik va loyiha bilan ishlash qobiliyati ham zarur. Shunday ekan, akademik tasviriy san'atning ta'lim tizimidagi samaradorligi uning boshqa fanlar va ijodiy amaliyot bilan qay darajada uyg'unlashtirilishiga ham bog'liq.

[32] Ли Н.Г. Рисунок. Основы учебного академического рисунка. – М.: Эксмо, 2005.
[33] Itten J. The Art of Color: The Subjective Experience and Objective Rationale of Color. – New York: Reinhold, 1961.

Akademik tasviriy san'atni o'qitishdagi muammolar va ularni hal etish yo'llari.

Zamonaviy badiiy ta'limda akademik tasviriy san'atning o'rnini belgilashda bir qator metodik muammolarga e'tibor qaratish zarur.

Birinchidan, akademik mashqlarni faqat texnik aniqlik bilan baholash. Bunday yondashuvda talabaning kuzatuvchanligi, tahliliy fikrlashi va individual ijodiy qarori yetarlicha hisobga olinmasligi mumkin.

Ikkinchidan, o'quv topshiriqlarining bir xil qolipda tashkil etilishi. Talabalarning tayyorgarlik darajasi, ijodiy qiziqishi va kasbiy yo'nalishlari turlicha bo'lgani sababli ta'limda tabaqalashtirilgan va moslashuvchan metodlardan foydalanish muhimdir.

Uchinchidan, an'anaviy akademik mashqlar bilan zamonaviy badiiy amaliyot o'rtasidagi aloqaning sustligi. Akademik tayyorgarlik mustaqil kompozitsiya, konseptual izlanish va raqamli ijod bilan bog'lanmagan taqdirda talaba o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llashda qiyinchilikka duch keladi.

To'rtinchidan, baholash mezonlarining yetarlicha aniq belgilanmasligi. K.Ouen ham rasm chizish ko'nikmalarini baholashdagi mezonlarning noaniqligi talabalar uchun o'quv maqsadlarini mavhumlashtirishini ko'rsatgan[34]. Akademik ishlarni baholashda tasviriy aniqlik bilan bir qatorda kompozitsion yechim, kuzatish sifati, ish jarayonidagi izlanish va talabaning individual rivojlanishi ham hisobga olinishi kerak. Shu maqsadda 2-jadvalda akademik ishlarni baholashning tavsiya etilayotgan mezonli modeli keltirilgan.

2-jadval

Akademik chizmatasvir va rangtasvir ishlarini baholash mezonlari (tavsiya etilayotgan model)

Mezon	Mazmuni	Tavsiya etilgan ulushi
Kompozitsiya	Tasvirning varaqda joylashuvi, kompozitsion markaz, muvozanat va yaxlitlik	20%
Konstruktiv qurilish va nisbatlar	Shaklning konstruktiv tuzilishi, perspektiva, proporsiyalarning to'g'riligi	25%
Ton va rang munosabatlari	Yorug'-soya gradatsiyasi, hajm, rang uyg'unligi va kolorit	20%
Texnik ijro	Material va texnikani egallash darajasi, fakturani ifodalash	15%
Ijodiy jarayon va mustaqillik	Eskizlar va izlanishlar, badiiy yechimning asoslanganligi, refleksiya	20%

Mazkur muammolarni hal etish uchun quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Akademik chizmatasvir va rangtasvir fanlarining o'quv dasturlarini kasbiy yo'nalishlar bilan uyg'unlashtirish.
2. Tasviriy qonuniyatlarni mustaqil ijodiy loyihalarda qo'llashga yo'naltirilgan topshiriqlar ulushini oshirish.

[34] Owen C. Through a Glass Darkly: The Teaching and Assessment of Drawing Skills in the UK Post-16 Art & Design Curriculum // International Journal of Art & Design Education. – 2020. – Vol. 39, No. 2. – P. 333–345. – DOI: https://doi.org/10.1111/jade.12265.

3. Talabalar ishlarini eskizdan yakuniy natijagacha kuzatish imkonini beruvchi portfolio tizimini joriy etish.
4. An’anaviy tasviriy texnikalarni raqamli vositalar bilan to’ldirish.
5. Baholash mezonlarida texnik mahorat, tahliliy yondashuv, kompozitsion yaxlitlik va ijodiy mustaqillikni alohida ko’rsatish (2-jadval).
6. Pedagoglarning zamonaviy badiiy amaliyot va yangi o’qitish metodlari bo’yicha kasbiy rivojlanishini qo’llab-quvvatlash.

Muhokama. Nazariy tahlil natijasida akademik tasviriy san’atning zamonaviy badiiy ta’limdagi ahamiyatini belgilovchi bir nechta asosiy jihatlar aniqlandi.

Birinchidan, akademik chizmatasvir va rangtasvir vizual idrokni rivojlantirish, shaklni tahlil qilish va tasviriy muammolarni hal etish ko’nikmalarini shakllantirish uchun metodik asos vazifasini bajaradi. Bu jihat zamonaviy oliy badiiy ta’limda kuzatish va rasm chizish amaliyotlarini birgalikda o’rganishga bag’ishlangan tadqiqotlar[35] hamda vizual idrok psixologiyasi xulosalari bilan hamohangdir.

Ikkinchidan, akademik tasviriy san’atni zamonaviy san’at shakllariga qarama-qarshi qo’yish o’rniga, ularning o’zaro to’ldiruvchi imkoniyatlarini aniqlash maqsadga muvofiq. Akademik bilimlar rassomga realistik tasvir yaratish bilan bir qatorda shaklni umumlashtirish, stilizatsiya qilish va yangi vizual yechimlarni ongli ravishda ishlab chiqishda ham yordam beradi.

Uchinchidan, akademik ta’lim samaradorligi faqat yakuniy tasvirning texnik sifatiga bog’liq emas. Talabaning kuzatish jarayoni, eskizlar ustida ishlashi, mustaqil qaror qabul qilishi va o’z faoliyatini tahlil qilishi ham ta’lim natijasining muhim tarkibiy qismlaridir. Shu sababli baholash tizimi mahsulot va ijodiy jarayon o’rtasidagi muvozanatni ta’minlashi zarur[36].

To’rtinchidan, akademik tasviriy san’atni o’qitishda raqamli vositalardan foydalanish uning mazmunini kengaytirishi mumkin. Biroq texnologik vositalar tasviriy kuzatish, material bilan bevosita ishlash va shaklni qo’lda tahlil qilish tajribasining o’rnini to’liq bosa olmaydi. Ularning pedagogik qiymati aniq ta’limiy vazifaga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Beshinchidan, akademik ta’limning istiqboli fundamental tayyorgarlikni individual ijodiy izlanish bilan uyg’unlashtirishga bog’liq. Talaba tasviriy qonuniyatlarni o’zlashtirgach, ularni turli uslub va badiiy yo’nalishlarda qo’llash imkoniyatiga ega bo’lishi lozim.

Shunday qilib, tadqiqotning nazariy natijasi akademik tasviriy san’atni faqat an’anaviy texnik mahoratni egallash vositasi sifatida emas, balki vizual tafakkur, ijodiy mustaqillik va kasbiy tayyorgarlikni birlashtiruvchi tizim sifatida talqin etishdan iborat. Taklif etilgan bosqichli topshiriqlar tizimi va mezonli baholash modelining samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash keyingi tadqiqotlarning vazifasi hisoblanadi.

Xulosa. Zamonaviy san’at jarayonlarida tasviriy ifoda vositalarining kengayishi akademik tasviriy san’atning ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, 128isual axborot hajmining ortishi va yangi texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida shaklni tahlil qilish, kompozitsion fikrlash, ranglar munosabatini anglash va badiiy obrazni ongli ravishda yaratish ko’nikmalari yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Akademik tasviriy san’at badiiy ta’limning fundamental tarkibiy qismi bo’lib, talabalarning vizual idroki, kuzatuvchanligi va tasviriy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

[35] Abdullah M., Khairani M.Z., Vincent Amos F., Abdul Aziz M.N., Ramlie M.K. Learning to Draw is Learning to See: A Comprehensive Review of Art and Design Practices in Higher Education // Idealogy Journal. – 2024. – Vol. 9, No. 1. – P. 93–105. – DOI: https://doi.org/10.24191/idealogy.v9i1.563.
[36] Eisner E.W. The Arts and the Creation of Mind. – New Haven: Yale University Press, 2002.

2. Akademik chizmatasvir va rangtasvirning asosiy vazifasi borliqni tashqi jihatdan takrorlash bilan cheklanmaydi. U predmetning konstruktiv tuzilishi, fazoviy munosabatlari, yorug'lik va rang xususiyatlarini anglash orqali badiiy fikrlashni shakllantiradi.
3. Raqamli texnologiyalar va zamonaviy san'at shakllari akademik tasviriy san'atni inkor etmaydi. Aksincha, fundamental tasviriy bilimlar yangi 129isual vositalardan ongli, samarali va tanqidiy foydalanish uchun zarur asos yaratadi.
4. Akademik ta'lim va ijodiy erkinlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash badiiy pedagogikaning muhim vazifasidir. Ta'lim jarayonida texnik mahorat bilan bir qatorda mustaqil izlanish, individual badiiy pozitsiya va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyati ham rivojlantirilishi lozim.
5. Akademik tasviriy san'atni o'qitish samaradorligini oshirish uchun fanlararo integratsiya, bosqichma-bosqich topshiriqlar, portfolio va mezonli baholash, raqamli vositalardan maqsadli foydalanish hamda individual ijodiy loyihalarni kengaytirish maqsadga muvofiq.
6. Oliy badiiy ta'limda akademik tasviriy san'atni zamonaviy kasbiy talablar bilan uyg'unlashtirish rassomlar, dizaynerlar va tasviriy san'at pedagoglarini tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, akademik tasviriy san'atning bugungi kundagi dolzarbligi uning tarixiy an'analarni saqlab qolishidangina emas, balki insonning 129isual fikrlashini rivojlantirish, badiiy tajribani tahlil qilish va yangi ijodiy yechimlar yaratish imkoniyatlarini ta'minlashida namoyon bo'ladi. Shu sababli akademik tasviriy san'at zamonaviy badiiy ta'limning muhim metodologik va amaliy tayanchi sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

II. Ilmiy adabiyotlar

1. Абдуллаев С.А. Рангтасвир асарида композиция муаммолари. – Тошкент: «ТДСИ ўқув босмахонаси», 1994.
2. Абдуллаев С.А. Ўқув топшириқлари. – Тошкент: «ТДСИ ўқув босмахонаси», 1994.
3. Нуриддинов М.Н. Портрет қўллари билан. – Тошкент: «ТДСИ ўқув босмахонаси», 1996.
4. Раҳметов С. Рангтасвирда ялангғоч фигура. – Тошкент: «ТДСИ ўқув босмахонаси», 1996.
5. Ортиқов Ғ. Рангтасвир асарларидан нусха кўчириш. – Тошкент: «ТДСИ ўқув босмахонаси», 1997.
6. Беда Г.В. Живопись. – М.: Просвещение, 1986.
7. Кардовский Д.Н. Пособие по рисованию. – М.: Изогиз, 1938.
8. Кирцер Ю.М. Рисунок и живопись. – М.: Высшая школа, 1992.
9. Ли Н.Г. Рисунок. Основы учебного академического рисунка. – М.: Эксмо, 2005.
10. Ростовцев Н.Н. Академический рисунок. – М.: Просвещение, 1984.

11. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. – М.: Просвещение, 1980.
12. Чистяков П.П. Письма, записные книжки, воспоминания. – М.: Искусство, 1953.
13. Abdullah M., Khairani M.Z., Vincent Amos F., Abdul Aziz M.N., Ramlie M.K. Learning to Draw is Learning to See: A Comprehensive Review of Art and Design Practices in Higher Education // Idealogy Journal. – 2024. – Vol. 9, No. 1. – P. 93–105. – DOI: https://doi.org/10.24191/idealogy.v9i1.563.
14. Arnheim R. Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye. – Berkeley: University of California Press, 1954.
15. Edwards B. Drawing on the Right Side of the Brain: The Definitive, 4th Edition. – New York: Tarcher/Penguin, 2012.
16. Eisner E.W. The Arts and the Creation of Mind. – New Haven: Yale University Press, 2002.
17. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
18. Gombrich E.H. Art and Illusion: A Study in the Psychology of Pictorial Representation. – London: Phaidon, 1960.
19. Itten J. The Art of Color: The Subjective Experience and Objective Rationale of Color. – New York: Reinhold, 1961.
20. Owen C. Through a Glass Darkly: The Teaching and Assessment of Drawing Skills in the UK Post-16 Art & Design Curriculum // International Journal of Art & Design Education. – 2020. – Vol. 39, No. 2. – P. 333–345. – DOI: https://doi.org/10.1111/jade.12265.
21. Pevsner N. Academies of Art, Past and Present. – Cambridge: Cambridge University Press, 1940.
22. Riley H. A contemporary pedagogy of drawing // Journal of Visual Art Practice. – 2021. – Vol. 20, No. 4. – P. 323–349. – DOI: https://doi.org/10.1080/14702029.2021.1980278.
23. Riley H., Darlington M. Drawing matters // Art, Design & Communication in Higher Education. – 2022. – Vol. 21, No. 1. – P. 115–130. – DOI: https://doi.org/10.1386/adch_00050_1.
24. Ruskin J. The Elements of Drawing. – London: Smith, Elder and Co., 1857.